



Moturudiy maktabining rivojlanish tarixi

Abdusattoriy Abdulloh

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom

instituti 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada Imom Motrudiyning hayot yo'llari, u kishining ilmiy meroslari va asarlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Samarqand, payg'ambar, aqoid, kalom ilmi, mo turit, tarix

Alloma Imom Moturidiyning to'liq ismi Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur al-Moturudiy as-Samarqandiy bo'lib, Samarqandning Moturid (bazi manbalarda Moturit) deb ataladigan mahallasida tug'ilgan.

Moturid — Samarqand yaqinidagi qishloqlardan birining nomi. U hozirda buzilgan shaklda Matrit deya ataladi. Aslida esa, manbalarda aytilishicha, qishloqning nomi arabcha «Mo turid?» so'zidan olingan. Ma'nosi «Nima demoqchisan?»dir. Aytishlaricha, Shayx Abu Mansur kalom ilmiga ruju qilgan paytlarida shogirdlari ko'payib ketgan va ular o'zaro bahs qilganlarida bir-birlariga arab tilida ko'pincha «Mo turid?» deb murojaat qilganlar. Shu so'z ko'pchilik qulog'iga tez-tez chalinavergach, Shayx shogirdlarini moturidiylar, qishloq nomini esa Moturid deb atay boshlaganlar (Zarnujiy. «Ta'lim al-muta'allim» sharhi).

Nasablari Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) Makkai mukarramadan Madinai munavvaraga hijrat qilib kelganlarida o'z uyidan joy bergan mashhur sahobiy - Abu Ayyub



Xolid ibn Zayd ibn Kulayb al-Ansoriy hazratlariga borib etadi, deb naql qiladilar. Bu nisbatni ba'zi muarrixlar rad etganlar.

Tug'ilgan yillari haqida tarixiy manbalarda qat'iy ma'lumot yo'q, lekin taxminiy sanalar berilgan. Masalan, uning abbosiy xalifalardan Mutavakkil (232-247h.) davrida yashaganlari aniq. Yana, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy (vafoti 248 yil hijriy) va Nasir ibn Yahyo al-Balxiy (vafoti. 268 h.) kabi ustozlaridan saboq olganliklarini nazarda tutilsa, Shayxning tug'ilgan yilini 238 hijriy deb taxmin qilish mumkin.

Lekin boshqa manbada, aniqrog'i «Islom qomusida tug'ilgan yillari 870 milodiy yil deb ko'rsatilgan. Shunga asosan 2000 yilda tavalludlarining 1130 yilligi nishonlandi. Bu hisobga ko'ra, Shayx tavalludlari 257 h. yilga to'g'ri keladi.

Vafot etgan sanalari to'g'risidagi ma'lumotlarning eng ishonchlisi 333 h.y. hisoblanadi. Bu milodiy sana bo'yicha 944 yilga to'g'ri keladi.

Moturidiya ulamolarining eng mashhurlaridan Abu Muin an-Nasafiy (438-508 H./1046—1114 m.) o'zlarining «Tabsiratul-adilla» kitobida shunday yozadilar: «Abu Mansur Moturidiy vafot etganlarida yaqin shogirdlaridan biri Abul-Qosim al-Hakim uning qabr toshiga quyidagi bitikni yozdirgan ekan:

Yani: «Bu qabr nafasleri miqdoridagi ilmlarni o'zida jam etgan, bor kuchini u ilmlarni tarqatish va o'rgatish bilan tugatgan, bas, shuning uchun diniy asarlari maqtovg'a sazovor bo'lgan va o'z umridan serhosil mevalarni olishga erishgan zotning qabridir».

Shayx Abu Mansur Moturidiyning qabri Samarqand shahrining "Chokardiza" qabristonida ekanligi ishonchli manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida o'z tasdig'ini topdi. Shunga binoan 2000 yilning may oyida O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan bu xususda maxsus fatvo chiqarildi



Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://moturidiy.uz>
2. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalarga yechim. ‘Matbaachi’ nashriyoti, 2024